

ТАБИАТ BIZDAN NIMA KUTMOQDA?

Nargiza Atayeva,
Urganch Davlat Universiteti,
Filologiya va san`at fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik muammolar, ularning inson va tabiatga ta'siri, shuningdek, yechim va tavsiyalar ko'rib chiqilgan. Maqola o'quvchilarda ekologik muammoni oshirishga qaratilgan.

Inson ongli mavjudot: o'ylaydi, fikrlaydi, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalar haqida xulosa chiqaradi. Tabiatning qanday paydo bo'lgani, uning yaralishi va butun borliqning sir-sinoatlari uni yillar davomida o'ylantirib keladi. Tabiat... U naqadar go'zal va sokin. Shaharning sershovqin kunlaridan qochib, tabiat qo'yniga borib kelaveradi. Ayniqsa, uning beg'ubor va jozibador har bir fasli o'zgacha tarovatga ega. Tabiat bag'ridan to'lqinlanib oqayotgan zilol suvlari, g'arq pishayotgan mevalari, musaffo osmoni — bularning barchasi ona tabiatning mo'jizasidir. Biz unga qanchalik mehr ko'rsatsak, uning mehr-shafqati shunchalik yorqin namoyon bo'laveradi. Ammo insoniyat o'z faoliyati bilan tabiatga foydadan ko'ra ko'proq zarar yetkazayotgani hammaga ayon. Ekologik madaniyat tushunchasi har bir insonda, avvalo, oilada shakllanadi. Ota-onaning o'zi yashab turgan uyi, tabiat, undagi daraxtlar, o'simliklar, hayvonlarga munosabati, kiyinishi va ozodaligi — bularning barchasi bolada ekologik qarashlar shakllanishiga zamin yaratadi. Farzand yangi kiygan kiyimini kir qilsa yoki yig'ishtirilgan joyni tartibsizlantirib qo'ysa, ota-onaga unga tanbeh beradi. Tabiat ham xuddi shunday. Ba'zan bizni o'rab turgan muhitga nazar solib, insonning piyoda yurishga ham ko'ngli tortmaydi: yerdagi turli xil axlatlar kishining dilini xira qiladi. O'ylab ko'ring: bahor yoki kuz fasllarida tabiatning go'zalliklaridan zavqlanib, sof havo va yoqimli shabada ostida sayr qilish istagi uyg'onadi. Ammo shunday kezlarda tevarak-atrofning holati ba'zan odamni ranjitadi.

Inson o'z tabiatini “ona tabiat” deydi-yu, ammo unga farzanddek munosabat bildirayaptimi?

Ulug' olim Abu Rayhon Beruniy: “Agar odamlar tabiatga nisbatan loqayd bo'lsalar, uning qonun-qoidalarini qo'pol ravishda buzsalar, bir kun kelib tabiat ulardan o'ch oladi; o'shanda hech qanday kuch uni to'xtata olmaydi”, — deya ta'kidlagan. Hozirgi kunda ayrim mamlakatlarda sodir bo'layotgan turli tabiiy ofatlar — sel va to'fonlar, yong'inlar, zilzilalar, chang bo'ronlari — balki insoniyatning ona tabiatga nisbatan shafqatsizligi oqibati emasmikan?

“Dengiz oldida tursang ham bir tomchi suvni uvol qilma”, — deydi dono xalqimiz. Ekologik muammolarning achchiq oqibatlari haqida gapirganda uzoqqa borish shart emas. Orol dengizining qurib borishi bizning eng og'riqli nuqtamiz bo'ldi. Insoniyatning o'zi bir ulkan dengizni quritib yubordi. Bir zamonlar to'lib-toshib oqib yotgan dengiz XXI asrning o'zida yo'qolib ketdi. Bu esa hozirda butun dunyoning global muammosiga aylangan. Erkin A'zamning “Tanho qayiq” asarida Orol bobo va uning taqdiri misolida dengizning qurishi, u bilan birga insonga xos ezgu hislarning ham so'nib borayotgani yoritiladi. Kinorejissyor Nozim To'laxo'jayev «O'zbekkino» Milliy agentligi buyurtmasiga binoan “Tanho qayiq” badiiy filmini suratga olgan. Film ijodkorlarining ta'kidlashicha, Orol fojiasi — bir bahona, asar aslida inson qalbining dag'allashib, qurib-sayozlashib borayotganidan paydo bo'layotgan fojialar haqida.

“Chang bo'lmasa, inson ming yil yashashi mumkin”, — degan edi Abu Ali Ibn Sino. Bobomiz yashagan davrlarda har qanday dori-darmon o'tlar, tabiiy gilyohlar va o'simliklardan tayyorlangan. Hozir-chi? Bugungi kunda qimmat dorilarning mingdan ortiq turlari mavjud. Ularning tarkibida tabiiy gilyohlar juda oz miqdorda yoki umuman yo'q. Bunga nima sabab? Yer yuzida hayvon zotlari va o'simlik turlarining yo'qolib borishining ikki sababi bor: birinchisi — tabiiy sharoitning o'zgarishi (tabiiy sabablar), ikkinchisi esa — antropogen, ya'ni inson faoliyati oqibatidagi omillar. Dunyo bo'yicha qushlar va hayvonlarning $\frac{1}{4}$ qismi tabiiy sabablar tufayli, $\frac{3}{4}$ qismi esa inson ta'sirida yo'qolgan.

Hayvonot va o`simlik dunyosini asrash borasida ko`plab amaliy ishlar qilinmoqda. Har bir davlat, viloyat, shahar va mintaqalarda “Qizil kitob”lar shakllantirilmoqda. O`zbekiston Qizil Kitobi esa 1984-yilda tuzilgan bo`lib, unda ko`plab o`simlik turlari va hayvon zotlari kiritilgan. Masalan, o`simliklardan: lolaning barcha turlari, anzur piyozi, boychechak va boshqalar.

Yer yuzida yildan yilga tabiat burchaklarida inson oyog`i yetmagan hududlar kamayib bormoqda. Ya`ni, cho`l, tog` va o`rmonlarning asl qiyofasini ko`rish tobora mushkullashib bormoqda. Tabiatning tabiiy muhitini va unda yashayotgan barcha jonzotlarni saqlab qolish maqsadida davlat tomonidan qo`riqxonalar tashkil etilgan. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda umurtqali hayvonlarning 600 ga yaqin turi hamda juda ko`p o`simlik turlari butunlay yo`qolib ketish xavfi ostida turibdi.

Ayniqsa, havoning ifloslanishi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. 2024-yil 5-yanvar kuni [Kun.uz](https://scientific-jl.org/obr) jurnalisti Bobur Akmalov xabar berishicha, Toshkent havosining ifloslanishi hatto Chernobil darajasidan kam emasligi aytilgan va O`zbekiston poytaxti havo sifati bo`yicha dunyoda 2-o`ringa chiqqani qayd etilgan. Afsuski, shu yilning 21-fevral kuni Xalqaro havo sifati indeksi (IQAir) tomonidan e`lon qilingan reytingga ko`ra, Toshkent shahri dunyoning eng yirik shaharlari orasida havoning ifloslanish darajasi bo`yicha 1-o`rinda deb belgilangan. Hozirga kelib esa shahar havosi yanada og`irlashib bormoqda.

Bunday muhit nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazadi, balki insonlar orasida turli yuqumli virusli kasalliklarning ko`payishiga ham sabab bo`ladi. Ketgi ko`rinmaydigan tirbandliklar, oxiri bilinmaydigan tartibsiz qurilishlar natijasida “yashil o`pkasiz” qolayotgan poytaxt...Nega bir paytlar kelishni orzu qilgan bu maskan endi odamlarni o`zidan uzoqlashtiryapti? Bunga biz sababchi emasmizmi? Kelajak avlodga hech bo`lmasa toza havo meros qoldira olamizmi?

Bugungi kunda "Science" jurnalida chop etilgan dastlabki jiddiy global taxminlarga ko`ra, Yer yuzida har yili taxminan 8 million tonna plastik chiqindi

okeanlarga tushadi. Bu plastik, asosan, inson faoliyati natijasida paydo bo`ladi va minglab yillar davomida parchalanmaydi. Okeanlarda hayot uchun xavf tug`dirayotgan bu chiqindilarni faqat bizning harakatlarimizgina to`xtata oladi. Axir ulardan qanchadan-qancha baliqlar nobud bo`lmoqda, ko`plab dengiz jonzotlari zarar ko`rmoqda, suv ifloslanmoqda.

Ekologiyaga qarshi ishlatilgan kuch aslida insonning o`ziga o`zi pichoq urishiga o`xshaydi. Bunga misol qilib Xitoy tarixidagi bir voqeani keltirish mumkin. Urushdan keyin Xitoyda oziq-ovqat tanqisligi bois ko`plab bug`doyzorlar barpo etiladi va hosilga zarar yetmasligi uchun chumchuqlarni qirib tashlash haqida qat`iy qaror chiqariladi. Ammo oqibatda hosil nobud bo`ladi. Sababi — chumchuqlar bug`doyzorlarni turli mayda hasharotlardan tozalab, “sanitarlik” vazifasini bajarar edi. Zero, hamma narsani bilguvchi Alloh hech bir jonzotni inson zotiga manfaatsiz qilib yaratmagan. Hamma narsa, hatto insonning o`zi ham tabiat bilan chambarchas bog`liq.

Bugungi kunda texnika rivojlanib, turli-tuman qurilishlar ko`paygani sari biz tabiatning asl ne`matlaridan tobora uzoqlashib bormoqdamiz. Katta-katta neft zavodlaridan chiqayotgan gazlar va tutunlar havoni zaharlamoqda. Suv resurslaridan ortiqcha foydalanish, inson manfaatlari uchun daraxtlarning yoppasiga kesilishi, suv va atrof-muhitga tashlanayotgan chiqindilar, mashinalardan chiqayotgan zaharli moddalarning ko`payishi — bularning barchasi tabiatni yemirayotgan asosiy omillardir.

Xulosa qilib aytganda, maqolada ko`tarilgan masalalar jamiyat hayoti uchun dolzarb bo`lib, ularning yechimiga ilmiy asoslangan yondashuv zarur. Tahlillar shuni ko`rsatadiki, muammo faqat alohida holatlar bilan cheklanmay, balki tizimli yondashuvni talab qiladigan omillar majmuasidan iborat. Shu bois, mavjud holatni yaxshilash uchun aniq mexanizmlar, samarali strategiyalar va amaliy choralarni

yo`lga qo`yish muhimdir. Vaziyatni yaxshilash uchun amalga oshirilishi lozim bo`lgan asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- plastik chiqindilarni qayta ishlash tizimini kuchaytirish;
- daraxtlarning kesilishini cheklash;
- yangi nihollar ekishni kuchaytirish;
- atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kuchli jarima;
- havoni ifloslantiruvchi manbalar nazoratini kuchaytirish;
- haftada kamida 1kun "mashinalarsiz kun" sifatida yo`lga qo`yilishi;
- yoshlar o`rtasida ekologik savodxonlikni oshirish;
- qushlar va hayvonlarni ovlashni ma`lum darajada cheklash;
- tabiatni muhofaza qilish loyihalariga aholining jalb qilinishini rag`batlantirish va boshqalar.

Shu choralarni amalga oshirish orqali biz tabiatni asrab-avaylash, kelajak avlodga sog`lom va go`zal muhit meros qoldirish imkoniga ega bo`lamiz. Biz shu zaminda, gullab-yashnayotgan yurtimizda hayot kechirar ekanmiz, ona tabiatni, yer-u osmonni, atrof-muhitni asrab-avaylash va uni tabiiy holida kelajak avlodga yetkazish bizning mas`uliyatimizdir. Agar hammamiz chin dildan harakat qilsak, befarq bo`lmay birlashsak, o`zimizni, kelajagimizni, go`zal va sog`lom hayotimizni himoya qilgan bo`lamiz. Zero, inson tabiat bilan tirikdir. Tabiat bo`lmasa, biror tirik jon hayot kechira olmaydi. Chunki inson va tabiat bir butundur. Inson — tabiatning bir bo`lagi, bir parchasidir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/01/27/tanho-qayiq/>

2.

https://uniwork.buxdu.uz/resurs/29534_1_F535AE64BAF9544D6D1487BBCD42967B52226F98.pdf

3. Z. MADRAXIMOVA K. ISHONQULOVA EKOLOGIYA VA ATROF-MUHIT MUHOFAZASI. O`quv qo`llanma. Guliston-2021

4. <https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/01/Ekologiya-A.Ergashev.pdf>

5. <https://kun.uz/news/2025/11/20/toshkent-havo-ifloslanishi-boyicha-dunyoda-1-oringa-chiqdi>